

## HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Hamroyeva Sarvara Otabekovna

Buxoro viloyati yuridik texnikumi

DHF 1/22-Guruh o'quvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada huquqiy ong bilan bog'liq masalalarni o'rganishda, eng avvalo "ong" va "ijtimoiy ong" kabi kategoriyalarning mohiyatini anglash zarurligi hamda ong faqat shaxsgagina xos bo'lgan miyaning til va nutq yordamida voqelik aksini umumlashtiradigan, konstruktiv hamda ijodiy nomoyon bo'ladigan funksiyasi ekanligi haqida qisqacha aytib o'tilgan. Shu bilan bir qatorda huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, huquqiy negilizm, huquqiy indealizm haqida ham fikrlar kiritilgan.

**Аннотация:** при изучении вопросов, связанных с правосознанием, прежде всего, необходимо понять природу таких категорий, как «сознание» и «общественное сознание», а сознание есть уникальный, конструктивный и творческий невидимый мозг, обобщающий отражение реальности с помощью языка и речи, вкратце упоминалось, что это функция. Кроме того, включены мысли о правовой культуре, юридическом образовании, юридическом нигилизме, юридическом реализме.

**Abstract:** in the study of issues related to legal consciousness, first of all, it is necessary to understand the nature of categories such as "consciousness" and "social consciousness", and consciousness is a unique, constructive and creative invisible brain that generalizes the reflection of reality with the help of language and speech. It was briefly mentioned that it is a function. In addition, thoughts about legal culture, legal education, legal nihilism, and legal realism are included.

**Kalit so'zlar:** huquqiy ong, mafkura, professional, modellashtirish, huquqiy madaniyat, indealizm, nihilizm.

**Ключевые слова:** правосознание, идеология, профессионал, моделирование, правовая культура, реализм, нигилизм.

**Key words:** legal consciousness, ideology, professional, modeling, legal culture, realism, nihilism.

Huquqiy ong darajasi jamiyat a'zolarining huquqiy ma'lumotlariga ham bog'likdir. Shunga ko'ra, fuqarolarning huquqiy madaniyat darajasini ko'tarishga ko'mak beradigan huquqiy axborot tizimini tashkil qilishning ahamiyati katta. Huquqiy madaniyatning darajasiga qarab, huquqiy ong 3 turga ajratiladi: oddiy, ilmiy va kasbiy. Oddiy huquqiy ong, odatda, o'z-o'zidan vujudga keladi va odamning shaxsiy tajribasi, huquqiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan hayotiy vaziyatlar haqidagi tushunchasi bilan belgilanadi. Bunga odamning ishga joylashuvidan yoki oliy o'quv yurtiga kirish qoidalari yo bo'lmasa yo'l qoidasini buzganligi uchun javobgarligi haqidagi bilimlar misol bo'la oladi. Huquqiy ong borliq haqidagi oddiy tushunchalar chegarasida qolib ketmaydi, doimo rivojlanadi, nazariy, ilmiy tushunchaga aylanadi. Ilmiy huquqiy ong ijtimoiy huquqiy haqiqatni u yo bu darajada to'g'ri aks ettiruvchi bilimlar tizimini o'z ichiga oladi. Kasbiy huquqiy ong esa yuridik oliy

o‘quv yurtlarida o‘qish natijasida shakllanadi, so‘ngra, huquqiy amaliyot jarayonida sayqallanadi. Huquqiy fanlar vakillari, huquqshunos amaliyotchilar uning subyektlari hisoblanadi. Ong deganda ruhiy in’ikos emas, balki ijtimoiy rivojlangan inson tomonidan voqelikni ruhiy aks ettirishning oliy shakli tushuniladi. Ongga tegishli belgilardan uning quyidagi ta’rifi kelib chiqadi: ong faqat shaxsgagina xos bo’lgan, miyaning nutq va til yordamida voqelik aksini umumlashtiradigan, maqsadga muvofiq, konstruktiv hamda ijodiy namoyon bo’ladigan oliy funksiyadir. Ong, shuningdek, kishining ruhiy, siyosiy, falsafiy nuqtayi nazarlari, diniy, badiiy qarashlaring ham majmui hisoblanadi, ijtimoiy ong deganda mana shular tushuniladi.

Huquqiy ongni ijtimoiy ongning boshqa sohalari (siyosiy, axloqiy, estetik va boshqala)ga nisbatan o’ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, huquqiy ong insonlarning ijtimoiy hayotining yuridik ahamyatli hodisalar (amaldagi qonunchilik, yuridik amaliyot, insonlar va fuqarolarning huquq va erkinliklari)ga oid baholovchi ruhiy munosabatini ifodalovchi huquqiy tasavvurlari, qarashlari, g’oyalari, hislari, hayajonlari majmui sifatida namayon bo’ladi.

Huquqiy ong tarkibiga to’rtta baholash bilan bog’liq munosabatlar kiradi. Bular – huquq va qonun hujjatlari (uning prinsiplari, shakllari, institutlari)ga nisbatan; atrofdagilarning huquqiy xatti-harakati (masalan, jinoyatchilik, davlat hokimiyati tuzilmalarining o’zaro munosabatlari xususiyati)ga nisbatan; huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularning faoliyatiga nisbatan; o’zining huquqiy xatti-harakatiga nisbatan munosabatdir.

Huquqiy ong – bu ijtimoiy ong shakllaridan biri bo’lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka huquq tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo’lgan g’oyalar, his tuyg’ular, tasavvurlar yig’indisidir.

Huquqiy ongning asosiy tarkibiy elementlari: huquqiy ruhiyat (psixologiya) va huquqiy mafkura (ideologiya).

Huquqiy ruhiyat (psixologiya) – bu alohida ijtimoiy guruh, shaxs yoki butun jamiyatda stixiyali ravishda vujudga keladigan huquqiy tuyg’ular, hissiyotlar, kayfiyatlar fikrlar yig’indisidan iborat bo’lgan huquqiy ongning tarkibiy elementi. Huquqiy ruhiyat jamiyatdagi mavjud huquqiy muhitning bevosita ta’siri ostida vujudga keladi va huquqiy ongning aynan shu darajasidan huquqiy reallikni anglash, u bilan dastlabki tanishuvi boshlanadi.

Huquqiy ruhiyati davlat va jamiyatning huquqiy asoslарини mustahkamlash, huquqbizarlik va jinoyatlarning oldini olish hamda ularga qarshi kurash samaradoriliginini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy mafkura – bu muayyan ijtimoiy guruhlarning, jamiyatning guruhlarning, jamiyatning huquqqiy qarashlari, g’oyalari, tasavvurlari va talablarining ilmiy tizimlashtirilgan ifodasidir.

Individual huquqiy ong – bu har bir shaxs, alohida insonga xos huquqiy bilimlar, baholar, hissiyotlar va tuyg’ular majmui hisoblanadi. Individual huquqiy ong fuqarolar tomonidan yuridik ahamiyatga molik xatti-harakatlar sodir etilganda, huquq va erkinliklar

amalga oshirilganda, qonuniy manfaatlar himoya qilinganda, turli ko'rinishdagi huquqiy hujjatlar tayyorlashda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy huquqiy ong – bu jamiyat yoki uning alohida ijtimoiy tabaqalari, sinflari tomonidan ilgari suriladigan huquqiy tasavvurlar, tamoyillar, tushunchalar, nazariyalar, hissiyotlar yig'indisidir.

Huquqiy ongning huquqiy modellashtirishtirish funksiyasi. Adabiyotlarda ushbu funksiyasi deb ham yuritiladi. Ma'lumki, huquqning yaratilishida huquqiy ongning o'rni juda ahamiyatli. Shu bois huquqiy ong huquq normalarini yaratishning muayyan bir vositasi sifatida maydonga chiqadi.

Huquqiy madaniyat – bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishidir. Huquqiy madaniyati jamiyat umumiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir.

Huquqiy tarbiya – bu jamiyat a'zolarining yurish-turish madaniyati va ongiga huquq haqidagi bilimlarni doimiy ravishda maqsadga muvofiq ta'sir etish orqali singdirib borish jarayonidir.

Huquqiy tarbiya – huquqiy tajriba almashish bo'yicha davlat, jamoat tashkilotlari, alohida fuqarolarning bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyati: huquq normalariga rioya qilish, ularni bajarish va bu normalardan foydalanishni ta'minlovchi muayyan ijobiy tasavvur, qarashlar, qadriyatlarni tushuntirish, yo'l-yo'riqlarni shakillantirish maqsadida shaxs ongi va xulq atvoriga doimiy ta'sir o'tkazib borishdir.

Huquqiy negilizm jamiyat huquqiy taraqqiyotning tizimli va maqsadga muvofiq rivojlanishiga jiddiy xavf tug'diruvchi va huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishiga to'siq bo'luvchi salbiy hodisalardan biridir.

Negilizm (lotincha "nihil" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "hech narsa", "inkor" degan ma'noni anglatadi). Huquqiy negilizm shaxslarning, ijtimoiy guruhlarning muayyan huquqiy qadriyatlariiga, normalarga, belgilangan tartib qoidalarga salbiy munosabatini, mensimaslik va ishonchsizlik kayfiyatini ifodalaydi.

Huquqiy idealizm – huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlariga ortiqcha baho berib yuborilishi bilan ajralib turadigan huquqiy ong holatidir.

Huquqiy negilizm va huquqiy idealizm bitta ildizdan, ya'ni yuridik bilimsizlikdan, rivojlanmagan va buzilgan huquqiy ongdan, siyosiy-huquqiy madaniyat yetishmasligidan oziq oladi. Garchi huquqiy idealizm ijtimoiy voqelikda nisbatan kamroq namoyon bo'lsa-da, ushbu hodisa davlat va jamiyatga xuddi huquqiy negilizm singari ziyon yetkazadi.

#### **ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Aholining huquq va erkiliklarini himoya qilish, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yanada yuksaltirishning huquqiy asoslari. E.Qodirov //Aholining huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqiy ongni oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining

o'rni va roli mavzusida tashkil etilgan davra suhbatি materiallari. - T.:Toshkent tezkor bosmaxonasi, 2015, 20-b

2. Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi (darslik). - T.: “Adolat”, 2018, 287b
3. Zakirova Sevara. “ Xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli”. // Fuqarolik jamiyati. 2017, №4, 49-b
4. Diyorova SHaxloxon. “Pedagogika oliv o'quv yurtlari talabalarining huquqiy madaniyatini rivojlantirish omillari tog'risida” // Pedagogika,2019, №2 134-b.